



**TALABALARGA CHET TILI O'RGATISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI
TASHKIL ETISHNING METODIK XUSUSIYATLARI**

Rahmonberdiyeva Karima Saydanovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Pedagogika bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarga chet tilini o'rgatishda mustaqil ta'limni tashkil etishning metodik xususiyatlari yoritiladi. Mustaqil ta'limning mazmuni, shakllari, usullari va uni samarali tashkil etishning didaktik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, motivatsiya, nazorat va baholash mezonlari muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada mustaqil ta'limni raqamli resurslar yordamida tashkil etishning afzalliklari va zamonaviy yondashuvlar ham yoritilgan. Chet tili o'rgatishda talabaning faolligini oshirish, o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishda mustaqil ta'limning ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Mustaqil ta'lim, chet tili o'qitish, metodik xususiyatlar, talaba faolligi, o'z-o'zini o'rganish, raqamli resurslar, motivatsiya, baholash, didaktik yondashuvlar, ta'lim texnologiyalari.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da, mamlakatimizdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan bo'lib, 2020-2021 o'quv yilida 33 dan ortiq OTMlarda ECTS kredit-modul tizimi joriy qilindi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, mamlakatimizdagi barcha OTMlar 2030 yilgacha kredit modul tizimida faoliyat yurita boshlaydi. ECTS kredit-modul tizimi joriy qilinishi oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi. ECTS kredit-modul tizimi aniq tamoyillar asosiga qurilgan bo'lib, bunda oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan o'quv jarayoniga talabaga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish (student-centered education), ta'limda shaffoflikka erishish (transparent education), ta'limda moslashuvchanlikni kuchaytirish (improving flexibility) va talabalar mobilligini kuchaytirish (improving student mobility) vazifalarini amalga oshiradi. Kredit-modul tizimida o'qish natijalari bu OTM tomonidan bakalavr va magistratura o'quv dasturining maqsadlarini kurslar davomida talabalarning o'quv yuklamalarini bajarishi natijasida o'rganishi, tushunishi va qila olishi kutilayotgan zarur bilim va ko'nikmalari (program learning outcomes) ni jamlanmasidir. Ya'ni ECTS kredit-modul tizimida faoliyat yuritadigan universitetlar amaliyotini tahlil qilsak, ularning aksariyatida auditoriya soatiga ega bo'lgan fan va modullarda auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40 foizga 60 foiz ekanligini kuzatishimiz mumkin. Talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har 1 soat dars uchun unga darsdan tashqarida bir



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



yarim soat mustaqil o'qishi, berilgan topshiriq va vazifalarni mustaqil tayyorlashi kerak bo'ladi. "Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilangan bo'lsa, undan 12 soati ($30 \cdot 40\% = 12$) auditoriya soatlari, 18 soati ($30 \cdot 60\% = 18$) esa talabaning mustaqil o'qish soatlariga to'g'ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o'qish yuklamasida aniqlasak, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ($((30 \cdot 6) \cdot 40\% = 72)$) auditoriya darslarini, 108 soat ($((30 \cdot 6) \cdot 60\% = 108)$) auditoriyadan tashqarida, uyda, kutubxonada mustaqil o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi. ECTS kredit-modul tizimida bir auditoriya akademik soat 45-60 minutga teng bo'lib, talaba o'qish yuklamasining bu tarzda taqsimlanishi ta'lim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z zimmasiga olishi, fan bo'yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda o'qib borishi kerakligini bildiradi [4] Darhaqiqat, XXI asrning mustaqil, zamonaviy, intellektual, raqobatdosh, kommunikativ kompetentli o'qituvchisining mahorati talabalarga fakat darsliklarda mavjud bilimni berish bilan emas balki, ularni o'z ustida mustaqil ishlashga, kreativ, mantiqan mustaqil fikr yuritishga, bugungi zamonaviy ilm-fan va texnika yutiqlaridan xabardor bo'lishga, innovatsion axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga, xorijiy tillardan savodxonlik darajasini oshib borishga, o'z fikr-mulohazalarini gurux jamoasi oldida mustaqil tarzda isbotlashga o'rgatishi bilan baxolanadi. Talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasa bilim, fan bo'yicha va tanlagan kasbining professional bo'lishi uchun zarur ko'nikma va malakalarini chuqur o'zlashtira oladi. ECTS kredit-modul tizimiga qo'ra, talaba tanlagan sohasining mutahasisi bo'lishi uchun bakalavr dasturini tamomlashda jami 240 akademik kredit, magistraturada jami 120 akademik kredit jamg'arishi kerak bo'ladi. U ushbu kreditlarni 50 foizini (bakalavr uchun 120 kredit, magistratura ta'limi uchun 60 kredit) majburiy fanlar hisobiga, qolgan 50 foizini tanlov fanlar (talabalarning qiziqishlari va hohishlari, kelajak rejalari asosida o'rganish mumkin bo'lgan fanlar) hisobiga jamg'arishi nazarda tutiladi. Akademik kredit-oliy ta'limning muayyan bosqichida ushbu ta'lim darajasini qo'lga kiritish maqsadida talaba tomonidan muntazam ravishda to'plab boriladigan ramziy o'lchov birligi bo'lib, bu birlik talaba ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini bajarganligi va muayyan o'qish natijalarini muvaffaqiyatli tarzda egallaganligini anglatadi. Ushbu kreditlarni albatta auditoriya va mustaqil o'qish soatlari hisobidan to'playdi, ya'ni talaba bakalavr akademik darajasini olish uchun jami 240 akademik kredit jamg'arishi uchun to'rt yil davomida o'rtacha 6000-7200 soatlik ($240 \cdot 25 = 6000$; $240 \cdot 30 = 7200$) o'quv yuklamasini, ikki yillik magistr akademik darajasi uchun o'rtacha 3000-3600 soatlik ($120 \cdot 25 = 3000$; $120 \cdot 30 = 3600$) o'quv yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi. Bundan auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40 foizga 60 foiz bo'lsa, demak bakalavr akademik darajasini olish uchun o'rtacha 2400-2880 soat auditoriya ($6000 \cdot 40\% = 2400$; $7200 \cdot 40\% = 2880$), 3600-4320 mustaqil o'qish soatlarini ($6000 \cdot 60\% = 3600$; $7200 \cdot 60\% = 4320$) bajaradi. Magistr akademik darajasini olish uchun o'rtacha 1200-1440 soat auditoriya ($3000 \cdot 40\% = 1200$; $3600 \cdot 40\% = 1440$), 1800-2160 mustaqil o'qish soatlarini ($3000 \cdot 60\% = 1800$; $3600 \cdot 60\% = 2160$) bajaradi. Ma'lumki,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda mustaqil ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Faqat dars jarayonida ushbu talablarni barchasini ularning ongiga singdirib bo'lmaydi. Shunday ekan, mazkur talablarni albatta mustaqil ta'lim orqali amalga oshiramiz, ya'ni ECTS kredit-modul tizimining talablariga ko'ra, 1 soat auditoriya vaqti uchun talaba 1.5 soat auditoriyadan tashqarida, uyda yoki kutubxonada mustaqil o'qishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi zarur ekan, bu jarayon ko'p jihatdan o'qituvchining mas'uliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Talabalarni o'z vaqtlaridan samarali foydalanishi uchun ularga darsdan tashqarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllanishiga qaratilgan mustaqil o'qib o'zlashtirishlari uchun ta'lim berishning faol (loyihalarga asoslangan ta'lim, muammoni tahlil qilish, muammoga tanqidiy yondashuv, tanqid qilish, munozaraga kirishish, jamoada ishlash, taqdimot qilish) usullaridan, shunindek zamonaviy elektron o'quv vositalaridan keng foydalangan holda qiziqarli interaktiv audio, video o'quv materiallarni, keys stadilarni, fan bo'yicha autentik topshiriqlarni berib borishi har bir OTM o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. "Talaba mustaqil ishi-muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bar qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir" [8]. Mustaqil ta'lim muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, pedagog tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarning mustaqil faoliyatidir. OTMlarda mustaqil ta'lim tizimini tashkil etish va amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 9 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baxolash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi" № 19-2018-sonli buyrug'i asosida "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baxolash tizimi to'g'risidagi nizom" ishlab chiqilgan. Mazkur nizom, kredit modul tizimining talablari, mutaxassislikka tayyorlovchi fan dasturlari hamda tajribalar asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini mustaqil ravishda rivojlantirini taqozo etadi. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonida mustahkam shakllanadi, bo'lajak mutaxassisda mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga kizikish paydo buladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatullayeva, N. R. (2021). On the Introduction of E-Learning Portfolio in the Educational Process. *Current Research Journal of Pedagogics* (2767-3278), 2(09), 35-37.
2. Ismatullayeva, N. R. (2022). POSSIBILITIES OF USING THE INTERACTIVE BOARD IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS.«. *O 'zbekiston-Xitoy: Tarixiy-Madaniy*, 77.
3. Исматуллаева, Н. Р. (2022). ЧЕТ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ИНТЕРАКТИВ ДОСКАДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 96-98.
4. Ismatullayeva, N. R. (2022). Teaching Translation Methodology in the Foreign Language Classes. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(12), 448-452.
5. Ismatullayeva, N. (2022). CHET TILIGA O 'RGATISHDA TARJIMANI O 'QUV JARAYONIDA QO'LLASH MASALASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 28), 224-229.

